XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 24-mart VII-30-33-10-0-K/26 Toshkent viloyati

Maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ- huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori talablariga asosan Toshkent viloyati hududlarida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini tartibga solish maqsadida, viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovning 2025-yil 12-noyabrdagi 6-4-6380-sonli xatini inobatga olib, tayyorlangan qaror loyihasi (regulation.gov.uz) portaliga joylashtirilib, jamoatchilik muhokamasi muddati 2025-yil 18-dekabrda yakunlandi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2025-yil 17-noyabrdagi yig‘ilish bayoni va xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-sonli farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarori

hamda viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovning 2025-yil 12-noyabrdagi 6-4-6380-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining 2025-yil 29-oktabrdagi 03-6/17/2337-son xulosa xati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligiga berilgan 2025-yil 21-oktabrdagi 10/584-son xulosa xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi, Sanitar tozalash korxonalari - “Zero Waste” MChJ, “Zangiota Obodon” MChJ, “Angren Bunyod Fayz” MChJ, “Rahnamo Servis” MChJ, “Ohangaron Sanitariya Tozalash” MChJ va “Toshkent viloyati Toza hudud” DM tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha tariflar **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Jo‘rayev), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (F.Nurillayev) byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bo‘yicha belgilangan normativlar asosida zarur mablag‘lar rejalashtirilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G‘.Sheraliyev), O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Toshkent viloyati teleradiokanali” davlat muassasasi direktori (O.Begaliyev)ga ommaviy axborot vositalari orqali qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari 2026-yilning 1-apreldan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Sanitar tozalashga ixtisoslashgan “Zero Waste” MChJ, “Zangiota Obodon” MChJ, “Angren Bunyod Fayz” MChJ, “Rahnamo Servis” MChJ, “Ohangaron Sanitariya Tozalash” MChJ va Toshkent viloyati “Toza hudud” DM korxonalari dispetcherlik xizmatlari ro‘yxati **2-ilovaga** tasdiqlansin.

7. “Zero Waste” MChJ, “Zangiota Obodon” MChJ, “Angren Bunyod Fayz” MChJ, “Rahnamo Servis” MChJ, “Ohangaron Sanitariya Tozalash” MChJ va Toshkent viloyati “Toza hudud” DM hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov tariflari 2026-yilning 1-apreldan kunidan boshlab qo‘llanishi yuzasidan xar bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

8. Mazkur qaror 2026-yilning 1-apreldan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **FAYZIYEVA SAYYORA MAVLYANOVNA**

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2026-yil 24-martdagi
VII-30-33-10-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyatida maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini ko‘rsatuvchi Sanitar tozalash korxonalarining RO‘YXATI

T/R	Sanitar tozalash korxona nomi	Xizmat ko‘rsatuvchi obyekt	O‘lchov birligi	Amaldagi narx *(tarif) (so‘m) (QQS siz)*	Amaldagi narx *(tarif) (so‘m) (QQS bilan)*	Taklif etilayotgan narx *(tarif) (so‘m) (QQS siz)*	Taklif etilayotgan narx *(tarif) (so‘m) (QQS bilan)*
1	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi, “Toza hudud” DM, “Zero-waste” MChJ, “Angren Bunyod Fayz” MChJ, “Rahnamo servis” MChJ, “Ohangaron sanitariya tozalash” MChJ, “Zangiota Obodon” MChJ	Jismoniy shaxslar	1 kishi bir oylik	7 000,0	7 840,0	9 700,0	10 864,0
		Yuridik shaxslar	1 m3	74 000,0	82 880,0	86 890,0	97 316,8

Izoh: *1 tonna qattiq maishiy chiqindini yuridik va jismoniy shaxslardan olib chiqib ketganlik hamda uni chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi yoki chiqindi poligonlariga yetkazib berganlik uchun sanitar tozalash korxonalariga to‘lov –* ***431 109,0 so‘m (QQS siz), 482 842,08 so‘m (QQS bilan).***

1 m3 qattiq maishiy chiqindini yuridik va jismoniy shaxslardan olib chiqib ketganlik hamda uni chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi yoki chiqindi poligonlariga yetkazib berganlik uchun sanitar tozalash korxonalariga to‘lov – ***192 188,0 so‘m (QQS siz), 215 250,56 so‘m (QQS bilan).***

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2026-yil 24-martdagi
VII-30-33-10-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyatida maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini ko‘rsatuvchi Sanitar tozalash korxonalarining

RO‘YXATI

T/R	Xizmat ko‘rsatuvchi hudud nomi	Sanitar tozalash korxona nomi	Dispetcherlik xizmati raqamlari
1.	Zangiota tumani	“Toza hudud” DM Zangiota tumani filiali	(97) 578-5890
2.	Chinoz tumani	“Toza hudud” DM Chinoz tumani filiali	(93) 855-9296
3.	Yangiyo‘l shahar	“Toza hudud” DM Yangiyo‘l shahar filiali	(94) 708-4128
4.	Bekobod tumani	“Toza hudud” DM Bekobod tumani filiali	(99) 430-3187
5.	Quyi Chirchiq tumani	“Toza hudud” DM Quyi Chirchiq tumani filiali	(88) 413-9477
6.	Piskent tumani	“Toza hudud” DM Piskent tumani filiali	(97) 319-6907
7.	Oqqo‘rg‘on tumani	“Toza hudud” DM Oqqo‘rg‘on tumani filiali	(97) 510-6492
8.	Yangiyo‘l tumani	“Toza hudud” DM Yangiyo‘l tumani filiali	(77) 353-2084
9.	Bo‘ka tumani	“Toza hudud” DM Bo‘ka tumani filiali	(99) 823-3403
10.	Angren shahar	“Zero-waste” MChJ	(99) 207-4444

T/R	Xizmat ko‘rsatuvchi hudud nomi	Sanitar tozalash korxona nomi	Dispetcherlik xizmati raqamlari
11.	Parkent tumani		
12.	Yuqorichirchiq tumani		
13.	Olmaliq shahar	“Angren Bunyod Fayz” MChJ	(99) 207-4444
14.	Nurafshon shahar		
15.	O‘rtachirchiq tumani		
16.	Ohangaron tumani		
17.	Bo‘stonliq tumani	“Rahnamo servis” MChJ	(99) 207-4444
18.	Qibray tumani		
19.	Ohangaron shahar	“Ohangaron sanitariya tozalash” MChJ	(99) 207-4444
20.	Toshkent tumani	“Zangiota Obodon” MChJ	(99) 207-4444
21.	Chirchiq shahar	“Zangiota Obodon” MChJ	(99) 207-4444